

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BEKMUXAMEDOVA MUNISA XAMITOVNA

**OHANGARON VODIYSI O‘RTA QISMIDA KIMYOVIY
ELEMENTLARNING TARQALISHI VA ULARNING AHOLI
SALOMATLIGIGA TA’SIRI**

11.00.05- Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2023

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Bekmuxeamedova Munisa Xamitovna

Ohangaron vodiysi o'rta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va ularning
aholi salomatligiga ta'siri.....3

Бекмухамедова Муниса Хамитовна

Распространение химических элементов в средней части Ахангаронской
долины и его влияние на здоровье населения21

Bekmukhamedova Munisa Khamitovna

Distribution of chemical elements in the middle part of the Akhangaron valley and
its impact on population health.....39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BEKMUXAMEDOVA MUNISA XAMITOVNA

**OHANGARON VODIYSI O‘RTA QISMIDA KIMYOVIY
ELEMENTLARNING TARQALISHI VA ULARNING AHOLI
SALOMATLIGIGA TA’SIRI**

11.00.05- Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Gr230 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) hamda “Ziyonet.uz” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sharipov Shavkat Muxamajanovich geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Nazarov Abdug‘affor Abdujabbarovich geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent Rafikova Nodiraxon A‘zamovna geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 29-dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-12-24, faks: (+99824) 246-53-24; 246-02-24; E-mail: ik-geografiya/nuuz@mail.ru). O‘zbekiston Milliy universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246 67 71.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 19-dekabr kuni tarqatildi.
(2023-yil “19” dekabrda № 58-raqamli reyestr bayonnomasi)

M.T.Mirakmalov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, g.f.d., dotsent

K.A.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d (PhD).

Z.N.Tojjeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik
ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi bilan tabiiy resurslardan foydalanish jadallashmoqda va buning oqibatida, atrof-muhitda kimyoviy moddalar to'planib, turli darajadagi ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Bu muammolarning oldini olish, ularga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida "2030-yilga kelib, xavfli kimyoviy moddalar ta'siri, shuningdek, havo, suv va tuproqning ifloslanishi va zaharlanishi natijasida o'lim va kasalliklar sonini sezilarli darajada kamaytirish"¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, ayniqsa kimyoviy elementlarning tarqalish xususiyatlarini aniqlash va miqdorini kamaytirish, aholi salomatligini muhofaza qilish, geoekologik vaziyatni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, atrof-muhitning geokimyoviy sharoitini baholash, kimyoviy elementlarning atrof-muhitda to'planish miqdorini aniqlash va ularning aholi salomatligiga ta'sirini kamaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, kimyoviy elementlarning tarqalishidagi tabiiy va antropogen omillarni aniqlash, geokimyoviy sharoitni baholash va modellashtirish, kimyoviy elementlarning aholi salomatligiga ta'sirini baholash hamda salbiy oqibatlarini kamaytirish va ekologik vaziyatni yaxshilashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda aholi uchun xavfsiz ekologik muhitni yaratish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish"² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, respublikamizda tog'-kon sanoati eng rivojlangan Ohangaron vodiysi o'rta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va to'planishini o'rganish, uning aholi salomatligiga ta'sirini kamaytirish va ekologik vaziyatni yaxshilashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Sustainable Development Goals/ High-level Meeting on Financing the 2030 Agenda for Sustainable Development // <https://www.un.org/sustainabledevelopment/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. “Yer haqidagi fanlar”, V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ohangaron vodiysi geotizimlari, geokimyoviy sharoiti va boshqa xususiyatlari Y.A.Skvorsov (1964), Sh.X.Abdullaev (1985), A.A.Rafiqov (1988), N.G.Mavlyanov (1989), Sh.S.Zokirov (1972), N.E.Shukurov (1999), M.M.Miraslanov, M.M.Zakirov (2003), Z.A.Amanbaeva (2004), A.N.Nuradilov (2004), Sh.R.Shukurov (2011), Sh.M.Sharipov (2011, 2022), M.A.Petrov (2021), F.F.Fayziev (2022) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Yuqoridagi ishlarda Ohangaron vodiysi, ayniqsa uning o‘rta qismida inson salomatligi uchun xavfli kimyoviy elementlarning to‘planishini o‘rganish maqsadida tadqiqot obyekti sifatida olinmagan. Shuningdek, vodiya kimyoviy elementlarning tarqalishi va to‘planishini o‘rganish hamda uning aholi salomatligiga ta‘sirini aniqlash masalalari tadqiqot predmeti sifatida qaralmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasining “A-7-9.Toshkent viloyatining landshaftlari xilma-xilligini saqlash va ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari kartasini yaratish” (2015-2017) amaliy tadqiqot loyihasi hamda Geologiya fanlari universitetining FZ-2020092567 “Tog‘-konchilik sanoati hududlari tuproqlaridagi og‘ir metallar: tarqalishi, uchrash shakllari, tuproq mikroorganizmlariga ta‘siri, tuproq ifloslanishining bioindikatsiyasi va bioremediatsiyasi jihatlari” (2021-2024) fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ohangaron vodiysi o‘rta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va to‘planishi xususiyatlarini, ularning aholi salomatligiga ta‘sirini aniqlash hamda ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ohangaron vodiysining o‘rta qismi tabiiy sharoiti haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish;

Ohangaron vodiysi o‘rta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va bunda tabiiy geografik va antropogen manba va omillarning xususiyatlarini aniqlash;

Ohangaron vodiysi o‘rta qismida kimyoviy elementlarning to‘planishi va mavjud geokimyoviy sharoitini aniqlash;

Ohangaron vodiysi o‘rta qismida xavfli kimyoviy elementlar tarqalishi va to‘planishini ifodalovchi kartalar yaratish;

kimyoviy elementlarning ruxsat etilgan me‘yordan ortishi natijasida vujudga keladigan kasallik turlari va ularning hududda tarqalish arealini aniqlash hamda kartalarini yaratish;

kimyoviy elementlarning aholi salomatligiga salbiy ta‘sirini kamaytirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Ohangaron vodiysi o‘rta qismi olingan.

Tadqiqotning predmeti Ohangaron vodiysi o'rtta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishini va ularning aholi salomatligiga ta'sirini aniqlash hamda ekologik vaziyatni yaxshilash masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida hududiy tahlil, GAT texnologiyalari, dala tadqiqoti, laboratoriya tahlili, statistik, kartografik, aerokosmik, adabiyotlar va fond materiallari bilan ishlash kabi metodlar hamda ekologik yondashuvdan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ohangaron vodiysi o'rtta qismida kimyoviy elementlar tarqalishi va uning tabiiy geografik (relyef qiyaligi, tog' jinslarining tarkibi, yer usti suv oqimi va shamol yo'nalishi) va antropogen (tog'-konchilik obyektlari va sanoat korxonalari) xususiyatlari aniqlangan;

Ohangaron vodiysi o'rtta qismining geokimyoviy sharoiti va kimyoviy elementlarning to'planish miqdori (ruxsat etilgan chegaraviy miqdor) aniqlangan;

GAT texnologiyalari asosida Ohangaron vodiysi o'rtta qismida xavfli kimyoviy elementlar tarqalishi va to'planishining o'rtta (1:200000) va yirik (1:50000) masshtabli kartalari yaratilgan;

Ohangaron vodiysi o'rtta qismida xavfli kimyoviy elementlarning ta'siri natijasida vujudga keladigan kasalliklarning turlari va ularning tarqalish areali aniqlangan hamda o'rtta masshtabli kartalari yaratilgan;

xavfli kimyoviy elementlarning tarqalishini va aholi salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ohangaron vodiysi o'rtta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va to'planish miqdori aniqlangan;

Ohangaron vodiysi o'rtta qismida kimyoviy elementlar tarqalishi va to'planishining 1:200000 va 1:50000 masshtabli kartalari yaratilgan;

Ohangaron vodiysi o'rtta qismida xavfli kimyoviy elementlarning ta'siri natijasida vujudga keladigan kasalliklarning tarqalish areali aniqlangan hamda o'rtta masshtabli kartalari yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining topografik kartalari, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, H.M. Abdullaev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti fond materiallari, Ohangaron tumani va Pskent tumani Statistika boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi, Tuman statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati inson salomatligi uchun xavfli kimyoviy elementlarning Ohangaron vodiysida tarqalish qonuniyatlari aniqlangani va ularning to'planish miqdori hamda ularning ta'siri natijasida vujudga keladigan kasalliklarning tarqalish areali aniqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yaratilgan kartalar va aniqlangan miqdor ko'rsatkichlar, ishning xulosalari va geografik qonuniyatlarga asoslanib ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalaridan kimyoviy elementlarning aholiga salbiy ta'sirini kamaytirish va ekologik vaziyatni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ohangaron vodiysi o'rta qismida kimyoviy elementlarning tarqalishi va ularning aholi salomatligiga ta'siri bo'yicha olingan natijalar asosida:

Ohangaron vodiysi o'rta qismida (Chotqol-Qurama mintaqasida) kimyoviy elementlar tarqalishining aniqlangan tabiiy geografik va antropogen xususiyatlari Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi institutida atrof-muhitda kimyoviy birikmalarning tarqalishini baholashda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 28-iyuldagi 08-2173-son ma'lumotnomasi). Natijada, kimyoviy birikmalar va moddalarning tarqalishini o'rganish tadqiqotlarini ilmiy asoslash imkoniyatini bergan;

Olmaliq, Angren, Ohangaron, Nurobod shaharlari va ularning atrofidagi hududlarda kimyoviy elementlarning to'planish miqdorini aniqlash natijalari Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi institutida sanoat korxonalaridan chiqariladigan kimyoviy birikmalarning monitoringini olib borishda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 28-iyuldagi 08-2173-son ma'lumotnomasi). Natijada, sanoat korxonalaridan chiqariladigan kimyoviy birikmalar va moddalar monitoringi ishlarini takomillashtirishga imkon yaratilgan;

Olmaliq, Angren, Ohangaron, Nurobod shaharlari va ularning atrofidagi hududlar bo'yicha yaratilgan 1:200000 va 1:50000 masshtabdagi kimyoviy elementlarning tarqalishi va to'planishi kartalari Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi institutida kimyoviy birikmalarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini aniqlashda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 28-iyuldagi 08-2173-son ma'lumotnomasi). Natijada, kimyoviy birikmalarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini tadqiq qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan radioekologik monitoring dala ishlarini samarali loyihalashtirish imkoniyatini bergan;

Olmaliq, Angren, Ohangaron, Nurobod shaharlari va atrofidagi hududlarda ekologik vaziyatini yaxshilash tadbirlarini geografik qonuniyatlarga asoslanib amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi institutida xavfli kimyoviy birikmalarning tarqalishi va ularning to'planish miqdorini aniqlashda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 28-iyuldagi 08-2173-son ma'lumotnomasi). Natijada, radioaktiv ifloslanishning alohida manbalarini aniqlash va zararsizlantirish borasida radiatsion-ekologik ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi va uning mazmuniga oid 13 ta ilmiy maqola va tezislari e'lon qilingan, shulardan O'zbekiston

Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 3 tasi respublika va 2 tasi (1 tasi Web of Science ba'zasida) xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyannig tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqot mavzuining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzuning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ta'kidlanib, uning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi qayd etilgan, ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning amaliyotda joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ohangaron vodiysi o'rta qismi tabiiy sharoitiga tavsif”** deb nomlangan **birinchi bobida** Ohangaron vodiysi o'rta qismining geografik o'rni, paleogeografiyasi, tektonik tuzilishi va orografiyasi, geologiyasi va geomorfologiyasi, iqlimi va ichki suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi ko'rib chiqilgan.

Mazkur hududda: respublikamizda eng sanoatlashgan Olmaliq-Angren sanoat hududining mavjudligi va sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi tog'-kon, energetika, kimyo, metallurgiya sanoati tarmoqlaridan iborat ekanligi; sanoat obyektlari va boshqa antropogen ta'sir turlari oqibatida ekologik vaziyatning keskinlashganligi; aholining zichligi va aholi yashash joylarining asosan vodiyning tubida, ya'ni gipsometrik jihatdan eng past qismidagi geotizimlarda joylashganligi va bu yerga vodiyning har ikki yonbag'ridan va yuqori oqim tarafdin kimyoviy elementlarning kirib kelishi va to'planishi kabi holatlar ushbu tadqiqotning bajarilishi naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Ohangaron vodiysi tabiiy sharoiti, paleogeografik taraqqiyoti, tektonikasi, orografiyasi, geologiyasi va geomorfologiyasi Korsakov F.P., Kogay N.A., Skvorsov Y.A., Yusupov R., Rijkov O.A., Poslavskaya O.Yu., Zokirov Sh.S., Shermatov Sh.M., Zaynutdinov A., Mamatqulov M.M. va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ana shu adabiyotlar, manbalar va dala kuzatuvlari asosida tadqiqot obyektining geologik tuzilishi, relyefi va orografiyasi, iqlimi, yer usti va yer osti suvlari, tuproqlari va o'simliklariga umumiy tavsif berilgan. Bunda vodiyning geokimyoviy sharoiti shakllanishidagi ahamiyatli tomonlariga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Ohangaron vodiysi o'rta qismida kimyoviy elementlarning to'planish xususiyatlari”** deb nomlangan **ikkinchi bobida**, landshaftlarning geokimyoviy sharoitini o'rganishning nazariy metodologik asoslari, sanoat korxonalarini chiqindilarining atrof-muhitga ta'siri, Ohangaron vodiysi o'rta qismi kimyoviy elementlarining to'planish xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Landshaft geokimyosi tarixida to‘rt bosqichni ajratish mumkin (A.I.Perelman va N.S.Kasimov bo‘yicha): Polinov bosqichi, 1950-yillardagi landshaft geokimyosi, 1960-70-yillardagi landshaft geokimyosi va zamonaviy bosqichga bo‘lib o‘rganildi.

Tuproqlar tabiiy muhitning ajralmas qismi bo‘lib, o‘zida atrof-muhitning fizik-kimyoviy o‘zgarishlari haqidagi ma’lumotlarni to‘playdi va aks ettiradi. Ular tabiiy muhitning boshqa hech qaysi komponentlariga o‘xshamagan holda batafsil ekologik-geokimyoviy tadqiqotlarni va doimiy kuzatuvni talab qiladi. Turli sanoat korxonalarini, xususan, kimyo va metallurgiya sanoati korxonalarini joylashgan va ularga bevosita tutash hududlarda ko‘pincha texnogen o‘zgarishlar yuzaga kelib, og‘ir metallarning ruxsat etilgan me’yordan oshib ketishi, kislotali yomg‘irlar ta’sirida tuproqdagi og‘ir metalli birikmalarning erishi sababli tuproq qatlamining ifloslanishi, eroziyasi va deflyatsiyasi kuzatiladi. Bunday texnogen ta’sirga uchragan tuproq qatlamini esa o‘z holiga qaytarish juda katta mehnat va xarajatni talab etadi.

Tog‘-kon sanoat hududida ma’dan boyitish fabrikalari, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat korxonalarini chiqindilarining ochiq holda saqlanishi atrof muhit ekologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Geokimyogar mutaxassislar tomonidan olib borilgan mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlar, tuproq namunalari tarkibidagi zararli metallarning miqdori ruxsat etilgan me’yordan birmuncha yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda havza bo‘ylab og‘ir metallarning tarqalish qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, geotizim va uni tashkil etuvchi biologik komponentlarning muvozanat mexanizmini o‘rganish va tahlil qilish lozim.

Og‘ir metallar sirasiga D.I.Mendeleyev elementlar davriy jadvalining atom massasi 50 atom massa birligidan katta bo‘lgan 40 dan ortiq metallar kiradi. Ularga Pb, Zn, Cd, Hg, Cu, Mo, Mn, Ni, Sn, Co va boshqalar misol bo‘ladi. “Og‘ir metallar” qat’iy tushuncha bo‘lmasdan, ba’zan ularga atom og‘irligi 50 dan kichik bo‘lgan nometall elementlar, masalan, As, Se, hattoki, ba’zan F, Be va boshqa elementlar ham kiritiladi.

Ohangaron vodiysi o‘rta qismida kimyoviy elementlar tarqalishining relyef qiyaligi, yer usti suv oqimi va shamol yo‘nalishiga bog‘liq holda, shuningdek tog‘-konchilik obyektlari va sanoat korxonalarining turi va joylashuviga mos holda tarqalishi va to‘planishi aniqlangan.

Angren-Olmaliq sanoat zonasida joylashgan bir qator sanoat korxonalarini, tog‘-konchilik obyektlari, issiqlik elektr stansiyalari va boshqalarning atrof-muhitga ko‘rsatadigan ta’siri yoritilgan. Jumladan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK), Angren issiqlik elektr stansiyasi (IES), Apartak ko‘mir koni, Angren ko‘mir koni va uning tindirgichlari, Angren oltin ajratib olish zavodi, Boksuk quritish sistemasi, Dalneye, Qalmoqqir, Saricheka, Qo‘rg‘oshinkon, Nakpay, Qatrangi, Kulenmes, Balikti, Sartabutkon, Urgaz, Shovgaz, Saribuloq va boshqa konlar hamda sanoat korxonalarining ish faoliyati va atrof-muhitga chiqarayotgan zararli kimyoviy birikmalari tahlil qilindi.

1-jadval.

Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati hududida tuproqdan olingan namunalardagi og'ir metallarning miqdori (g/t)

Tuproq kesmasining tartib raqami (profili)	Hudud	Joy nomi	Co	Ni	Cu	Zn	As	Ag	Cd	Sn	Sb	Tl	Pb	Bi	Th	U
Pr-01	Ertoshsoy	Qishloq	17,0	63,6	101	117	33,9	0,547	0,227	3,04	2,15	0,701	46,5	0,545	16,1	2,63
Pr-05	Chetsu	Qishloq	11,4	41,3	52	120	31,2	0,438	0,322	2,18	2,20	0,666	56,1	0,578	12,9	2,50
Pr-09	Ohangaron suv ombori	Qishloq	16,1	68,9	73	190	38,3	0,660	0,566	3,45	3,22	0,994	81,8	0,823	16,3	2,96
Pr-11	Angren ko'mir koni	sanoat zonasi	6,87	38,9	46	93,7	28,9	0,624	0,273	1,77	1,72	0,569	51,7	0,512	8,71	2,77
Pr-32	Yangiobod	Qishloq	12,5	43,3	50	95,4	39,3	0,345	0,293	2,45	2,18	0,637	38,1	0,485	12,5	2,87
Pr-38	Shaugaz	Qishloq	14,2	62,6	129	146	38,6	0,530	0,527	2,94	2,98	0,709	59,7	3,14	13,0	2,42
Pr-42	Urgaz	Qishloq	13,2	49,1	162	147	39,0	0,489	0,620	2,44	3,11	0,617	63,1	0,769	12,3	2,36
Pr-44	Saricheku	kon maydoni yaqinida	12,3	70,4	102	162	32,7	0,511	0,507	2,63	3,54	0,658	88,8	0,904	12,9	2,55
Pr-46	Qalmoqqir	kon maydoni yaqinida	12,0	50,8	158	226	42,4	0,800	1,17	2,88	4,25	0,675	113	1,18	12,6	2,60
Pr-48	Kauldi	kon maydoni yaqinida	13,2	47,9	164	243	44,3	0,599	1,15	3,07	4,33	0,629	100	1,14	12,0	2,25
Pr-58	Yoshlik	kon maydoni yaqinida	11,3	39,0	171	260	41,8	0,599	1,21	2,45	4,59	0,641	145	1,37	12,8	2,60
Pr-72	Olmaliq	sanoat zonasi	15,0	52,0	300	560	35,0	0,680	2,20	3,20	4,90	0,630	160	4,30	10,0	2,30

Izoh: Jadval N.E.Shukurov (2022) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, tadqiqot olib borilgan hududda tarqalgan konlardan qazib olinadigan mis-molibden, polimetalli, oltin rudali ruda hosilalari va asosiy minerallari (pirit, xalkopirit, sfalerit, galenit, soxta rudalar, oltin) bayon etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xavfli kimyoviy elementlarning tarqalishi va ularning aholi salomatligiga ta’siri”** deb nomlanadi. Mazkur bobda Ohangaron vodiysi o’rta qismida og‘ir metallarning tarqalishi va ularning kartalarini yaratish, Olmaliq tog‘-kon sanoat hududi atrofidagi tuproqlarda og‘ir metallarning tarqalishi, xavfli kimyoviy elementlarning aholi salomatligiga ta’siri, Ohangaron vodiysi o’rta qismi ekologik vaziyatini yaxshilash va xavfli kimyoviy elementlarning aholiga salbiy ta’sirini kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobda antropogen ta’sir natijasida tabiiy muhitning turli chiqindilar bilan ifloslanishidan aholi, chorva mollari, hayvonlar, o’simliklar, tuproq ancha zarar ko‘rayotgani, buning oqibatida ular orasida turli kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalishi yoritilgan.

Tadqiqot jarayonida Olmaliq, Angren va Ohangaron shaharlarida joylashgan sanoat korxonalari atrofidan hamda Ertoshsoy, Chetsu, Ohangaron suv ombori, Angren ko‘mir koni, Yangiobod, Shaugaz, Urgaz, Saricheku, Qalmoqqir, Kauldi, Yoshlik, Olmaliq sanoat zonasi atrofidan namunalar olindi va og‘ir metallarning tuproqdagi miqdorlari laboratoriya tahlili usuli yordamida aniqlandi. Bunda, asosan, Co, Ni, Cu, Zn, As, Ag, Cd, Sn, Sb, Tl, Pb, Bi, Th, U kabi og‘ir metallarning miqdori (g/t) aniqlandi (1-jadval).


Namuna olish jarayonida tuproqning yuza qismidan 0-10 sm va 10-20 sm chuqurlikdan tuproq namunalari olindi. Namuna olingan nuqtalar koordinatalari GPS orali aniqlanib qayd etib borildi. Namunalar olinadigan nuqtalardagi shamol yo‘nalishlari ham qayd etib borilishi lozim. Bunga sabab, sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli elementlar shamol ta’sirida uchib keladi va shu hududning tuproq, o’simlik va hayvonot dunyosiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Og‘ir metallarning eng yuqori miqdorlari o‘rganilgan hududda tuproqning yuza qatlamida (0-10 sm) ekanligi aniqlandi. Tuproqning pastki qatlamlarida esa ularning miqdori yuza qatlamdagi miqdoridan bir muncha pastroq.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tuproqdagi og‘ir metallarning tarkibi har doim ifloslanish manbasiga yaqinlashishi bilan ortadi va undan uzoqlashgan sari asta-sekin kamayib boradi.

Mazkur jadval asosida og‘ir metallarning tadqiqot obyektida tarqalish miqdori aniqlandi. Ma’lumotlar umumlashtirilib, ArcGIS dasturi yordamida mazkur og‘ir metallarning tarqalishi kartasi yaratildi. Quyida, misol tariqasida, kobalt og‘ir metalining Ohangaron vodiysi o’rta qismi bo‘ylab tarqalishi keltirilgan (1-rasm).

Demak, kobalt og‘ir metali Ertoshsoy, Uzunbuloq, Jigariston qishloqlari, Olmaliq sanoat zonasi atrofi, Shovgaz, Urgaz qishloqlari, Kauldi koni atroflarida yuqori darajada tarqalgan. Angren ko‘mir koni, Yoshlik koni va Chetsu qishlog‘ida nisbatan kamroq tarqalgan.

Xuddi shu kabi Ni, Cu, Zn, As, Ag, Cd, Sn, Sb, Tl, Pb, Bi, Th, U elementlarining ham ArcGIS dasturi yordamida tarqalish areali kartalari yaratilgan.



1-rasm. Kobalt og'ir metalining Ohangaron vodiysi o'rta qismi bo'ylab tarqalishi.

Tadqiqot obyektida xavfli kimyoviy elementlarning ta'siri natijasida vujudga keladigan kasalliklarning turlari va ularning tarqalish areali aniqlangan. Jumladan, endokrin tizimi, qon va qon yaratish tizimi, asab tizimi, ko'z kasalliklari, yurak-qon-tomir tizimi, oshqozon-ichak, siydik-tanosil, teri va teri osti kasalliklari, suyak-mushak tizimi kasalliklarining har 100 kishiga nisbatan miqdori aniqlandi (2-jadval). Jumladan, Qoraqir, Ozodlik, Birlik, Telov, Beshkapa, Qoraxitoy, Uvoq, Ilg'or, Nurobod, Qurama va boshqa qishloq vrachlik punktlaridan aholining qaysi kasalliklar bilan kasallanishi to'g'risidagi ma'lumotlar olindi va tahlil qilindi. Kasalliklarning tarqalishi Qishloq vrachlik punktlari (QVP) kesimida olingan bo'lib, har bir QVP bir nechta qishloqlarga xizmat ko'rsatadi.

Ohangaron vodiysi o'rta qismida tarqalgan kimyoviy elementlarning inson organizmiga ta'siri natijasida kelib chiqadigan kasalliklar aniqlanib, kartalari tuzildi. Quyida, misol tariqasida, kobalt og'ir metali ta'siri natijasida vujudga keladigan endokrin tizimi kasalliklarining Ohangaron vodiysi bo'ylab tarqalishi kartasi keltirilgan (2-rasm).


Huddi shu kabi xavfli kimyoviy elementlarning tarqalishi va to'planishiga bog'liq ravishda qon va qon yaratish tizimi, asab tizimi, yurak-qon-tomir tizimi, oshqozon-ichak, siydik-tanosil, suyak-mushak tizimi kasalliklarining ham kartalari tuzilgan.

Quyidagi 3-rasmda Ohangaron havzasi bo'ylab tarqalgan barcha og'ir metallarning tarqalishini ifodalovchi izoliniyalari keltirilgan. Unga ko'ra, asosan, og'ir metallar sanoat konlari yaqinidagi hududlarda ko'proq tarqalgani aniqlandi.

Ohangaron havzasi o'rta qismida kasalliklarning tarqalishi


№	Kasallik nomi	Qoraqir QVP (10862 kishi)		Ozodlik QVP (10861 kishi)		Birlik QVP (10354 kishi)		Telov QVP (13515 kishi)		Beshkapa QVP (12031 kishi)		Qoraxtoy QVP (18257 kishi)		Uvak QVP (6532 kishi)		Ilg'or QVP (5719 kishi)		Qurama QVP (8845 kishi)		Nurobod QVP (9698 kishi)	
		Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	Har 100 kishiga	
1	Yuqumli kasalliklar	178	2	162	2	238	2	211	2	150	1	266	1	60	1	95	2	32	0	155	2
2	Endokrin tizimi kasalliklari	154	1	185	2	229	2	53	0	310	3	37	0	155	2	123	2	312	4	2704	28
3	Qon va qon yaratish tizimi kasalliklari	842	8	881	8	930	9	1207	9	1105	9	806	4	630	7	627	11	764	9	0	0
4	Asab tizimi kasalliklari	194	2	61	1	56	1	134	1	146	1	230	1	38	1	87	2	122	1	168	2
5	Ko'z kasalliklari	62	1	34	0	111	1	69	1	105	1	72	0	42	1	36	1	89	1	502	5
6	Yurak-qon-tomir tizimi kasalliklari	2576	24	2602	24	2757	27	2847	21	2505	21	2537	14	2245	34	1920	34	2582	29	76	1
7	Nafas olish tizimi kasalliklari	979	9	690	6	1868	18	1273	9	2972	25	2321	13	1192	18	1353	24	1822	21	91	1
8	Oshqozon-ichak tizimi kasalliklari	758	7	965	9	1427	14	1012	7	1786	15	1129	6	1007	15	669	12	1288	15	16	0
9	Siydik-tanosil tizimi	559	5	613	6	968	9	1009	7	907	6	1011	6	420	6	513	9	729	8	267	3
10	Teri va teri osti kasalligi	54	1	42	1	49	1	115	1	119	1	84	0	26	0	37	1	116	1	15	0
11	Suyak-mushak tizimi	327	3	402	4	343	3	466	3	775	6	570	3	257	4	319	6	368	4	14	0
12	Jaroxat va zaharlanish	50	1	3	0	42	1	45	0	135	1	72	0	34	1	24	0	115	1	23	0

Izoh: Ohangaron tumani Statistika boshqarmasi va QVPlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Endokrin tizimi kasalliklarining Ohangaron vodiysi o'rtasi qismida tarqalishi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, kimyoviy elementlar, xususan og'ir metallarning odam organizmida ko'p yoki kam bo'lishi turli organlarda modda almashinuvini o'zgartiradi, hayotiy zarur jarayonlarni buzadi va oqibatda turli kasalliklarning vujudga kelishiga sababchi bo'ladi.




3-rasm. Ohangaron vodiysi o'rtasi qismida og'ir metallarning tarqalish izoliniyalari.

Bu borada, Ohangaron daryosi o'rtasi qismi havzasi mamlakat doirasida "ekologik andoza" bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki, mavjud sanoat korxonalari, konlar, chiqindi jinslar uyumi, ag'darmalar, ishlatib bo'lingan ruda qoldiqlari omborlari, avtotransport va boshqa atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar yuqorida nomlari ko'rsatilgan elementlarning tabiiy muhitga ko'plab chiqarilishining manbalaridir.

Shuningdek, Olmaliq tog'-kon sanoat rayoni atrofidagi tuproqlarda og'ir metallarning tarqalishi va geokimyoviy sharoiti ham tahlil qilingan. Bu yerda oltin, rangli metallar, ko'mir qazib olish, qurilish sanoati mahsulotlari va elektr energiyasini ishlab chiqarishning yirik korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, paxtachilik, g'allachilik, poliz, meva-sabzavotchilik kabi ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot hududi yaqinida OKMK, mis eritish zavodi, rux eritish zavodi, mis boyitish fabrikasi, qo'rg'oshin boyitish fabrikalari joylashgan. OKMK o'zining ko'plab tog'-kon inshootlari (karyerlar, axlatxonalar, chiqindilar, loyqa tindirgichlari) bilan Olmaliq sanoat rayonida havo va tuproqni og'ir metallar bilan ifloslantirishning asosiy manbai hisoblanadi.

Quyida misol tariqasida Vanadiy elementining Gijigen tarmog'i bo'ylab tarqalishi keltirilgan (4-rasm). Vanadiy elementi Gijigen tarmog'ining Koriz kanali atrofida eng ko'p aniqlangan. Bunga sabab, ushbu hudud yaqinida Mis boyitish fabrikasi va Olmaliq kimyo zavodi joylashganligi va uning chiqindilari qoldiqlarining ta'siri natijasidir.



4-rasm. Vanadiy elementining Gijigen tarmog'i bo'ylab tarqalishi

Xuddi shu kabi galliy, rubidiy, stronsiy, uran, ittiriy, bariy, toriy, skandiy, niobiy elementlarining ham Gijigen tarmog‘i bo‘ylab tarqalish areali kartalari yaratilgan.

Bunda kimyoviy elementlarning asosiy qismi OKMK sanoat rayoni atrofida tarqalganini ko‘rish mumkin.

Ohangaron vodiysi o‘rta qismi ekologik vaziyatini yaxshilash va xavfli kimyoviy elementlarning aholiga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida bir qancha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Avvalo muhofaza mintaqasini korxonalaridan ma‘lum masofalarda vujudga keltirish maqsadga muvofiq. Chunki sanoat markazidan uzoqlashgan sari chiqindilar ta‘siri shunchalik kamayib boradi va shunga bog‘liq holda, o‘simliklar vegetatsiyasi uchun tegishli ekologik sharoit vujudga kela boshlaydi. Turli manzarali daraxt o‘simliklari og‘ir metallarga, har xil gazlar va ishqorli yomg‘irga turlicha bardosh beradi. Avvalo, igna bargli, keyin aralash bargli, so‘ngra keng bargli daraxtlar ishqorli yomg‘irlarga bardosh bera oladi. Qo‘rg‘oshin, mis va ruxga nisbatan albtsiya, gleditsiya, eman, chinor, kashtan, shumtol, zarang, dala zarangi, safora, dala klyoni, biryuchina kabi daraxt o‘simliklari bardoshli, ya‘ni barqaror holda vegetatsiya qilishi ta‘kidlab o‘tilgan.

Yirik korxonalar (masalan, OTMK) atrofida mazkur hududni vujudga keltirishda uning chiqindi chiqarishda ulkan manba ekanligi va ta‘sir radiusi kattaligini hisobga olinib, uni loyihalashga kiritish ma‘qul. Bizningcha, manbadan 1000 m uzoqlikdan boshlab yashil hudud tashkil qilinsa chiqindilarning unga ta‘siri kamroq bo‘ladi.

Shaharlar hududida ham ko‘chalar chekkalarida, maydonlarda, baland qavatli uylar atrofida daraxtzorlar vujudga keltirish maqsadga muvofiqdir. Bu daraxtlar, avvalo, ko‘chalarda avtomobil transportidan, shuningdek, sanoat korxonalaridan chiqqan zararli moddalarni akkumulyatsiya qilishda faol ishtirok etadi.

Tog‘-kon sanoati hududida ishlab chiqarish chiqindilari korxonalar atrofida to‘planmasligi, chiqindilarni maxsus omborlarga to‘plash, korxonalarda qozonxona hamda gaz va chang yig‘ish uskunalari vaqti-vaqti bilan ta‘mirlash, zararli moddalar chiqarilishi va ularning manbalarini bartaraf etish bo‘yicha doimiy monitoring o‘rnatishga e‘tibor qaratish lozim. Tog‘-kon sanoati hududidagi sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarida oqava suvlarni tozalash va undan sanoat maqsadlarida foydalanish katta ekologik ahamiyatga ega.

Ohangaron vodiysi yer osti va yer usti suvlariga boy. Bu suvlardan ichimlik sifatida, sug‘orishda va sanoat ishlab chiqarishda foydalaniladi. Shunday ekan, ular muhofaza qilinib zarur chora-tadbirlarni qo‘llanilishini talab etadi. Bu borada, suv o‘tkazish va suv tozalash inshootlarini o‘rnatilishi va ularni muntazam ta‘mirlab turilishi lozim. Suv havzalariga oqava suvlarni tashlashdan avval ular talab darajasida tozalanishi va havzaga qaytarilishi kerak.

Shuningdek, atrof-muhitga chiqayotgan chiqindilar tarkibidagi zararli elementlar ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish, korxonalarida tozalash inshootlarini ta‘mirlash va ekologik talablarga javob beradigan yangi tozalash inshootlarini o‘rnatish, Angren konchilik hududida ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash korxonalari faoliyatini tashkil etish va yirik sanoat korxonalari atrofidagi atrof-

muhitning ekologik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish zarur.

XULOSA

1. Atrof-muhitda kimyoviy elementlar va og'ir metallar miqdorining ortib ketishi tirik organizmlar uchun zararli va hatto xavfli bo'lishi mumkin. Kimyoviy birikma va elementlarning tarqalishi va tuproq tarkibida to'planishi tog' jinslari va minerallarning nurashi, eroziya, filtratsiya, relyef qiyaligi, yer usti suv oqimi va shamol yo'nalishiga bog'liq holda, shuningdek foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash korxonalarining joylashuvi, yoqilg'ilarni yoqish, avtotransport, qishloq xo'jaligi va boshqalar ta'sirida ro'y beradi. Sanoat korxonalaridan chiqadigan chiqindilarning katta qismi hududda to'planib qoladi, ma'lum qismi daryoga tushadi, dudbo'ronlardan chiqayotgan zararli komponentlarga boy chang va gazlar atmosfera va u orqali tuproqni ifloslaydi. Bu, o'z navbatida, unda o'sayotgan o'simlik va sabzavotlar tarkibida ham zararli elementlar miqdorining oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa aholi salomatligi uchun xavf tug'diradi. Tadqiqot hududida joylashgan bir qator sanoat korxonalari, tog'-konchilik obyektlari, issiqlik elektr stansiyalari va boshqalarning atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri yoritildi.

2. Ohangaron vodiysi o'rta qismi hududining geokologik vaziyati bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy elementlarning tarqalishi va to'planishini tahlil qilish uchun Olmaliq, Angren va Ohangaron shaharlarida joylashgan sanoat korxonalari atrofidan namunalar olindi va og'ir metallarning tuproqdagi miqdorlari laboratoriya-tahlili usuli yordamida tahlil qilindi. Namunalar Ertoshsoy, Chetsu, Ohangaron suv ombori, Angren ko'mir koni, Yangiobod, Shaugaz, Urgaz, Saricheku, Qalmoqqir, Kauldi, Yoshlik konlari, Olmaliq sanoat zonasi atrofidan olingan namunalardan laboratoriya-tahlili usullari yordamida tuproq tarkibidagi Co, Ni, Cu, Zn, As, Ag, Cd, Sn, Sb, Tl, Pb, Bi, Th, U kabi og'ir va radioaktiv metallarning miqdori (g/t) aniqlandi.

3. Ohangaron vodiysi o'rta qismida kimyoviy elementlarning to'planish tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, Co, Ni, Cu, Zn, As, Ag, Cd, Sn, Sb, Tl, Pb, Bi, Th, U kabi og'ir metallarning tuproqdagi miqdori klarkdan (chegaraviy miqdor) joylarda turli darajada yuqoridir.

4. ArcGIS dasturi yordamida Ohangaron vodiysi o'rta qismida tarqalgan Co, Ni, Cu, Zn, As, Ag, Cd, Sn, Sb, Tl, Pb, Bi, Th, U kabi og'ir metallarning tarqalishi va to'planish oreollari 1:200 000 masshtabdagi raqamli kartalari yaratildi. Ushbu kartalar tahlili og'ir metallarning anomal tarqalgan oreollari yirik sanoat korxonalari, karyerlar atroflari hamda doimiy va vaqtincha oqar suv tarmoqlari bo'ylab joylashganligini ko'rsatadi.

5. Olmaliq tog'-kon sanoat hududi atrofidagi tuproqlarda og'ir metallarning tarqalishi va geokimyoviy sharoitlarini ifodalovchi 1:50 000 masshabdagi raqamli kartalari yaratildi. Ushbu kartalar tahlili V, Ga, Rb, U, Th, Sr, Y, Nb, Ba, Sc elementlarining Gijigen tarmog'i bo'ylab tarqalishini ko'rsatadi. Shuningdek, og'ir metallarning tarkibi har doim ifloslanish manbasiga yaqinlashishi bilan ortadi va undan masofa uzoqlashishi bilan esa kamayadi. Asosiy ifloslanish Olmaliq tog'-kon

metallurgiya kombinati atrofida kuzatildi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati o'zining ko'plab tog'-kon inshootlari (karyer, sanoat chiqindilari, loyqa akkumulatorlari) bilan Olmaliq sanoat hududida havo va tuproqni og'ir metallar bilan ifloslantirishning asosiy manbai hisoblanadi.

6. Har bir element o'zining konsentratsiya darajasiga bog'liq holda foydali yoki zararli bo'ladi. Atrof-muhitdagi mikroelementlarning belgilangan miqdori barcha tirik organizmlarni fiziologik funksiyalarini optimal tarzda ishlashini ta'minlaydi. Qaysidir bir elementning yetishmasligi natijasida tirik organizmlarda qandaydir kasalliklar kelib chiqadi. Ma'danli elementlar miqdorining oshib ketishi organik dunyoga va insoniyat sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Zararli elementlarning ta'siri faqatgina uning yuqori konsentratsiyasigagina emas, balki tabiatda uchrash shakliga ham bog'liqdir. Zararli elementlarning nisbatan oson ko'chadigan shakllari tirik organizmlar, o'simlik dunyosi va insoniyat sog'ligiga zarar yetkazadi. Ohangaron vodiysi o'rta qismida og'ir metallarning ta'siri natijasida vujudga keladigan kasalliklarning turlari o'rganildi. Tadqiqot hududidagi endokrin tizimi, qon va qon yaratish tizimi, asab tizimi, ko'z kasalliklari, yurak-qon-tomir tizimi, oshqozon-ichak, siydik-tanosil, teri va teri osti kasalliklari, nafas olish tizimi, suyak-mushak tizimi kasalliklarining har 100 kishiga nisbatan miqdorini aniqlandi. Ta'kidlash joizki, mazkur kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi og'ir metallarning anomal tarqalgan oreollaridan uzoqlashgan sari kasallanishlar kamayadi va o'rtacha ko'rsatkich kuzatiladi.

7. Ohangaron vodiysi o'rta qismida tarqalgan og'ir metallarning ta'siri natijasida vujudga keladigan endokrin tizimi, qon va qon yaratish tizimi, asab tizimi, yurak-qon-tomir tizimi, oshqozon-ichak, siydik-tanosil, nafas olish tizimi, suyak-mushak tizimi kasalliklarining tarqalishini ifodalovchi o'rta masshtabli kartalar yaratildi.

8. Tadqiqot hududidagi xavfli kimyoviy elementlarning tarqalishini va aholi salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilash uchun sanoat korxonalarining zararli chiqindilarini tutib olish, ularning migratsiyasini kamaytirish, suv va tuproqda iloji boricha kamroq singishini amalga oshirish, shuningdek havoning kimyoviy moddalar bilan zararlanishini oldini olish uchun ular atrofida maxsus sanitariya-muhofaza mintaqalarini vujudga keltirish maqsadga muvofiq. Lekin, bu mintaqalarning samarali xususiyatlarini to'liq tushungan holda ularni sanoat korxonalarining atrofida tashkil qilish imkonini ham o'ylab ko'rish zarur. Jumladan, O'zbekiston tabiiy sharoitida o'sa oladigan tol, eman, chinor, kashtan, shumtol, zarang, safora, biryuchina kabi daraxtlar asosida sanitariya-muhofaza mintaqalarini sanoat korxonalarini atrofida tashkil qilish, joydagi landshaftlarning xususiyatlariga qarab tuyatovon, qayin, pixta, qora qarag'aylardan iborat daraxtzorlarni vujudga keltirish yaxshi natija berishi mumkin.

9. Bizningcha, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Ohangaron sement korxonasi, Angren GRESlari va boshqa sanoat korxonalarida chiqayotgan oqava suvlarni tozalab, qayta ishlab chiqarishda foydalanishga yo'naltirish suv resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Oqava suvlari yig'iladigan joylarda, bioplato inshootlari qurish maqsadga muvofiq. Bioplato qurilmasi iqtisodiy jihatdan unchalik qimmatga tushmaydi, asosiysi ularni zarur joyda vujudga keltirib, oqava suvlarni tozalashni o'z vaqtida amalga oshirish lozim. Bu bilan

suvdan tejamli foydalanishga erishiladi va suv resurslari isrof bo'lmaydi.

10. Ohangaron havzasi o'rta qismi atrof-muhitining ekologik holatini saqlash maqsadida geologiya-qidiruv, aniqlangan konlarni ekspluatatsiya qilish va rudalarni qayta ishlash jarayonlarida quyidagi talablarga qat'iy rioya qilish zarur: atrof-muhitga chiqayotgan chiqindilar tarkibidagi zararli elementlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatish; korxonalarda tozalash inshootlarini ta'mirlash va ekologik talablarga javob beradigan yangi tozalash inshootlarini o'rnatish; Angren konchilik hududida ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash korxonalarini faoliyatini tashkil etish va yirik sanoat korxonalarini tevaragidagi atrof-muhitning ekologik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

БЕКМУХАМЕДОВА МУНИСА ХАМИТОВНА

**РАСПРОСТРАНЕНИЕ ХИМИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В СРЕДНЕЙ
ЧАСТИ АХАНГАРАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА
ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ**

**11.00.05- Охрана окружающей среды и рациональное использование природных
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2023.4.PhD/Gr230.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyo.net» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Шарипов Шавкат Мухамажанович
доктор географических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Назаров Абдугаффор Абдужаббарович
доктор географических наук (DSc), доцент

Рафикова Нодирахон Аъзамовна
доктор философии по географическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Чирчикский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «29» декабря 2023 г. в 10⁰⁰-часов на заседании Научного совета по при суждению ученых степеней DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, 246-02-24. E-mail: : ik-geografiya/nuuz@mail.ru) Национальный университет Узбекистана, факультет географии и геоинформационных систем).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел:(+99871) 246-67-71.

Автореферат диссертации разослан «19» декабря 2023 года (протокол реестра № 58 от «19» декабря 2023 года).

М.Т.Миракмалов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.г.н., доцент

К.Т.Хакимов

Учёный секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.г.н. PhD

З.Н.Тожиева

Председатель научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. С быстрым ростом населения в мире использование природных ресурсов ускоряется и, как следствие, химические вещества накапливаются в окружающей среде, вызывая различного уровня экологические проблемы. Для предотвращения и борьбы с этими проблемами международные организации, включая программу ООН по устойчивому развитию до 2030 года, ставят задачи: «К 2030 году существенно сократить число случаев смерти и заболеваний в результате воздействия опасных химических веществ, загрязнения и отравления воздуха, воды и почв»³. При решении этих задач особенно важно определить особенности распределения химических элементов и уменьшить их количество, защитить здоровье населения, улучшить геоэкологическую ситуацию.

В мире в этом направлении проводятся научные исследования, в частности, по оценке геохимических условий окружающей среды, определению объемов накопления химических элементов в окружающей среде и снижению их воздействия на здоровье населения. В этом отношении особое внимание уделяется выявлению природных и антропогенных факторов распространения химических элементов, оценке и моделированию геохимических условий, оценке влияния химических элементов на здоровье населения, снижению их негативных последствий и улучшению экологической ситуации.

В республике проводится ряд реформ, которые направлены на создание безопасной экологической среды для населения и охрану окружающей среды, и достижение положительных результатов. В стратегии развития Нового Узбекистана намечены такие задачи, как «Экология и охрана окружающей среды, улучшение экологической ситуации в городах и районах, устранение существующих экологических проблем, наносящих ущерб здоровью и генофонду населения»⁴. В связи с этим большое значение приобретают научные исследования, направленные на изучение процессов распространения накопления химических элементов в средней части Ахангаранской долины, где имеется наиболее развитая горно-добывающая промышленность в республике, снижение ее воздействия на здоровье населения и улучшение экологической ситуации.

Данное диссертационное исследование в определенной степени послужит выполнению задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2019 года № УП-5863 «Об утверждении концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 октября 2018 года № 841 «О мерах по реализации национальных целей и задач в

³ Sustainable Development Goals/ High-level Meeting on Financing the 2030 Agenda for Sustainable Development // <https://www.un.org/sustainabledevelopment/>

⁴ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022- 2026 годы».

области устойчивого развития на период до 2030 года», а также других нормативных актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VIII «Науки о земле», V “Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды”.

Степень изученности проблемы. Геосистемы, геохимические условия и другие особенности Ахангаранской долины были изучены в работах Ю.А.Скворцова (1964), Ш.Х.Абдуллаева (1985), А.А.Рафикова (1988), Н.Г.Мавлянова (1989), Ш.С.Зокирова (1972), Н.Э.Шукурова (1999), М.М.Мирасланова, М.М.Закирова (2003), З.А.Аманбаевой (2004), А.Н.Нурадилова (2004), Ш.М.Шарипова (2011, 2022), Ш.Р.Шукурова (2011), М.А.Петрова (2021), Ф.Ф.Файзиева (2022) и др.

